

**COVID-19 KASALLIGI TARIXI**

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

Namangan filiali Davolash ishi yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Abduganiyev Abzalbek Abdunabi o`g`li

abzalbek1997@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada COVID-19 kasalligining tarixi yani uning kelib chiqishi tarqalishi haqida keltirilgan. Uning qaysi davlatdan kelib chiqishi va qaysi davlatalarda keng tarqalgani haqida keltirib o`tilgan. Bu kasallik O`bekiston davlatiga kirib kelib kelishi unga qaratilgan kurashlar haqida aytib o`tilgan. Qolaversa shu pandemiya davrida aholi o`rtasida tibbiy madaniyatni yo`lga qo`yish va aholi salomatligini saqlash uchun qaratilgan chora tadbirlar haqida qisqacha aytib o`tilgan. Yurtimiz shifokorlari, xususan, Namangan viloyati Uchqo`rg`on tuman tibbiyot birlashmasining jonkuyar va fidokor shifokor va hamshiralari haqida yoritib berilgan. Bu kasallik butun dunyoni bir muddat hayratga solgan kasallikdir. Bu kasallikka ishlab chiqilgan vaksinalar ham maqolada birqator keltirib o`tilgan.

Kalit so`zlar: COVID-19 koronavirus infeksiyasi, SARS-CoV-2, koronaviirusi, Xitoyning Uxan, Yevropa, Eron, Janubiy Koreya, AQShda, gripp, pnevmoniya, vaksina.

Аннотация: В данной статье рассматривается история заболевания COVID-19, то есть его происхождение и распространение. Упоминается, в какой стране он возник и в каких странах получил широкое распространение. Описывается борьба с этим заболеванием после его проникновения в Узбекистан. Кроме того, кратко упоминаются меры, принятые для формирования медицинской культуры среди населения и поддержания здоровья населения в период пандемии. Особое внимание уделяется врачам нашей страны, особенно самоотверженным и преданным своему делу врачам и медсестрам Учкурганского районного медицинского объединения



Наманганской области. Это заболевание уже давно поражает весь мир. В статье также упоминаются разработанные вакцины против этого заболевания.

Ключевые слова: Инфекция коронавируса COVID-19, SARS-CoV-2, коронавирус, Ухань, Китай, Европа, Иран, Южная Корея, США, грипп, пневмония, вакцина

Abstract: This article is about the history of the COVID-19 disease, that is, its origin and spread. It is mentioned in which country it originated and in which countries it is widespread. The fight against this disease is described when it entered the country of Uzbekistan. In addition, it is briefly mentioned about the measures taken to establish a medical culture among the population and maintain the health of the population during this pandemic. It is about the doctors of our country, especially the dedicated and selfless doctors and nurses of the Uchkurgan district medical association of Namangan region. This disease is a disease that has amazed the whole world for a while. The vaccines developed by Bukasalli are also mentioned in the article.

Keywords: COVID-19 coronavirus infection, SARS-CoV-2, coronavirus, Wuhan, China, Europe, Iran, South Korea, USA, flu, pneumonia, vaccine

COVID-19 Kasalligi Pandemiya ilk bora 2019-yil dekabr oyida Xitoyning Uxan shaxrida aniqlandi. Bu SARS-CoV-2 ya'ni, o'tkir nafas olish sindromi korona virusi keltirib chiqaradigan COVID-19 koronavirusi edi. Bu kasallik 2020-yil 11-martda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan shu kasallik pandemiya qayd etildi. Oldin bu kasallikni mutaxassislar inson omili tomonidan ishlab chiqilgan virus degan fikr ilgari surildi, lekin laborator tekshiruvlar natijasidan so'ng bu fikr o'zini oqlamadi va bu fikr rad etildi. Tekshiruvlar va tadqiqotlar jarayon uchun asos bo'ladigan malumotlar Xitoy va xorijlik olimlarining qidiruv va izlanishlar natijasida yig'ilgan. So'nggi natijalar e'lon qilinishining kechikishiga ekspertlar orasidagi kelishmovchiliklar sabab emasligi aytib o'tilgan. 2022 yil 9 may kuniga qadar bu virusni jahon bo'yicha 517 milliondan oshiq kishi, ya'ni, 192 tadan ortiq davlat fuqarolari yuqtirdi. Bunga ko'ra 6 250 000 dan ortiq inson bu kasallikni yuqtirib halok bo'ldi, 472 milliondan ortiq inson bu kasallikdan davolanib tuzaldi.



Kasallik o'choqlari yuzaga kelgan davlatlar bu: Xitoy, Eron, Yevropa, AQSH va Janubiy Koreya davlatlari deb hisoblanadi.

Bu kasallik boshlanishiga grippga o'xshab aksirganda, yo'talganda chiqadigan tomchilar orqali odamdan odamga yuqadigan kasallik turidir. Bu virus kasalligi alomatlari 5 kunda yuzaga kelsada lekin ko'p hollarda bu kasallikning yashirin davri 2 kundan 14 kungacha cho'zilishi mumkin va mana shu yashirin davrda ham boshqa insonlarga yuqishi mumkinligi aniqlangan. Bu kasallik insonda pnevmaniya va o'tkir nafas olish distress sindromi keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlangan. Bu kasallikning asosiy va aniq belgilaridan biri bu tana haroratining ko'tarilishi, ya'ni, istima bilan boshlanadi. Bu kasallikni yuqtirmaslik va oldini olish uchun avvalo inson shaxsiy gigiyenaga amal qilishi, ya'ni, doimo qo'llarni yuvib yurishi, insonlar bilan muloqotda oraliq masofani saqlashi va himoya niqoblarini taqish tavsiya etiladi. Bu kasallikni yuqtirganlar o'zlarini 14 kun davomida karantin, ya'ni, izolyatsiya qilishi tavsiya qilinadi va qolaversa odamlar ko'p joyda sayohat qilmaslik, ayniqsa, o'zini noxush his qilayotgan va istimalayotgan odamlardan yiroq yurish tavsiya qilinadi.

Qolaversa bu kasallikni tarqalishini oldini olish maqsadida katta katta muassasalarni faoliyatini vaqtincha to'xtatish va katta tadbirlarni qoldirish tavsiya etildi[Internet sayti].

O'zbekiston Respublikasiga COVID-19 pandemiyasining kirib kelishi.

O'zbekiston Respublikasida I-marotaba COVID-19 kasalligi 2020 yilning 15 mart kuni qayd etildi. Undan so'ng tarqala boshlandi va karantin qoidalari rioya qilish e'lon qilindi. Bu kasallik ilk bora Fransiyadan qaytayotgan O'zbekiston fuqarosida aniqlandi va qayd etildi. Ushbu holat e'lon qilingach O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan jabrlanuvchi va u bilan muloqotda bo'lgan insonlarni karantinga olishni yo'lga qo'ydi. O'zbekistonda pandemiya e'lon qilingach qo'shni Qozog'iston davlati ham o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadida davlat prezidenti Qosim Jomart Toqayev zudlik bilan chegarani yopdi. Karantin e'lon qilinishidan 2 kun oldin, O'zbekiston Fransiya, Ispaniya va Buyuk Britaniyaga parvozni to'xtatdi. 2020 yilning 22 mart sanasidan boshlab Toshkentdagi



korxonalarga masofadan turib ishlashni joriy etdi va himoya niqoblarini taqib yurishni majburiy qildi. O'zbekistonda bu kasallikda o'lim holati I-marotaba 2020 yilning 27 mart kunida 72 yoshli ayolda kuzatilgani haqida habar berdi va shu kundan boshlab vaziyat jiddiy tus oldi. Aholi sarosimaga tushdi karantin qoidalari esa jadallik bilan tus oldi. Joylarda karantinda yotadigan bemorlar uchun konteyner xonalar tashkil etildi va aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish to'g'risida masofadan turib onlayn tarzda tushunchalar berib o'tildi.

Bu orada ko'p shifokorlar o'zini jasoratini, fidokorligini namoyish etib, bu kasallik bilan kasallangan bemorlarni davolashga kirishishdi. Aholi o'rtasida ham shifokorlarga nisbatan hurmat oshdi va qadrlandi.

Bunday fidokorona mehnatni Respublikamizda barcha shifokorlar amalga oshirishdi va bu orada ko'plab shifokorlarni ham bu kasallikda vafot etgan holatlar ham bo'ldi.

Bunday davo muolajalarini olib borishda Namangan viloyati Uchqo'rg'on tuman tibbiyot birlashmasida ham barcha shifokorlar o'z mehnat faoliyatini olib bordi. Vaziyat jiddiy tus olayotganiga qaramay ular o'z kasbiga sodiq qolishdi. Ayniqsa Uchqo'rg'on tuman tibbiyot birlashmasi jonlantirish bo'limi xodimlari ushbu bo'lim boshli'g'i A. Axunov, bo'lim shifokorlari B. Ubaydullayev, A. Esonovlar, X. Qaxxorov, B. Qobilov, Z. Yuldashevlar boshchiligida barcha bo'lim hamshiralari va kichik tibbiy xodimlarining mehnatlari tuman miqqiyosida kasallikka qarshi kurashishda o'zgacha o'rin tutdi.

2022 yilning 4 yanvardagi holat ko'ra O'zbekistonda 198 769 ta kasallanganlar qayd etildi. Bulardan 195 840 davo muolajalaridan so'ng tuzaldi va vafot etganlar soni 1 485 tag yetdi[Internet sayti].

O'zbekiston Respublikasiga COVID-19 ga qarshi emlash uchun vaksinalar kirib kelishi. 2021 yilning 17 mart sanasida UNICEF tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamadzade va Sog'liqni saqlash vazirligi tashkiloti vakillari Toshkent aeroportida O'zbekiston Respublikasi uchun ajratilgan vaksinalarni bir qismini qabul qildi. Bu vaksina AstraZeneca turidagi vaksina bo'lib, O'zbekiston hududiga 1 marta 660 ming dozada yetkazib berildi.



O'zbekiston Respublikasida 2021 yilning 1 aprelidan bu vaksinalar qo'llash uchun ommaviy emlash boshlandi. Bu jarayonni jadallashtirish maqsadida Respublika hududida 3000 dan ortiq emlash markazlari va 800 ta mobil guruh tashkil etildi. Vaksinalar Sanitariya-epidemiologiya farovonligi va sog'liqni saqlash xizmatining maxsus sovuqxona bilan jixozlangan binoga olib borildi. Bu vaksinalar aholi o'rtasida qo'llana boshlandi va yuqori natijalar olish boshlandi. 2021 yilning iyul oyiga ko'ra O'zbekistonda 1 023 425 kishi to'liq emlandi. Vaksina olgan shaxslarga QR kodli guvohnomlar berila boshladi va asta sekinlik bilan karantin qoidalari ham yengillay boshladi va chegaralar ham birin-ketin ochildi va yana birin-ketinlik bilan karantin qoidlariga amal qilgan holatda korxona va tashkilotlar o'z ish faoliyatini boshladi[Internet sayti].

Bugungi kunga kelib bu kasalliklar to'g'risida aholi o'rtasida tushunch paydo bo'ldi va aholining tibbiy madaniyati sezilarli darajada o'sdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirda bu kasallik turi O'zbekistonda juda kam kuzatilyapti, chunki, har bir insonda vaksinatsiya natijasida bu kasallikga qarshi immun tizim mavjud. Shuning uchun ham aholi yana oldingiday turmush tarzini davom ettirmoqda.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. https://www.fhi.no/contentassets/37298bcaf6724377b68018cfd7db4309/vedlegg/usbekisk-uzbek_generell-informasjon-om-korona
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_COVID-19_pandemiyasi
3. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/first-batch-of-covid19-vaccines-to-uzbekistan>